ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ADABIYOTSHUNOSLIKDA DUALIZM TUSHUNCHASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI (AGATA KRISTI POETIKASI MISOLIDA)

Mamadjonova Sevara Maxamadjon qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
rus tili va adabiyoti kafedrasi doktoranti

Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasi badiiy matnni tahlil qilish va ichki (yashirin) ma'nolarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dualizm odatda bir biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar, hodisalar yoki obrazlar va ular o'rtasidagi ziddiyatlarni ifodalash orqali asar mazmunini, xususan uning motivini anglashga yordam beradi. Bu konsepsiyaning falsafiy ildizlari uzoq o'tmishdan to zamonaviy adabiyot nazariyasigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi[1].Dualizm badiiy matnda syujetni shakllantiruvchi, uning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, asar qahramonlarning ruhiyati va voqelik o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rsatib beradi. Shu orqali o'quvchini badiiy matnni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib, asar yuzasidan tanqidiy fikrlashga undaydi, bu esa adabiyotshunoslikning nazariy va metodologik asoslarini yoritib berishda muhim o'rin tutadi.

Agata Kristi o'z asarlarida detektiv janridan samarali foydalanganligi dualizm tushunchasining yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Muallif asarlarida dualizm asosan jinoyat va uning ochilishi, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegara, shaxsning tashqi ko'rinishi va ichki olami o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kabilar orqali yuzaga chiqib, syujetning markaziy elementini tashkil etadi. Masalan, «The Murder of Roger Ackroyd»[2] romanida bosh qahramon va yozuvchidan yashirilgan sir o'quvchi uchun jumboqli vaziyat yaratadi, qahramonlarning ichki nizolarini yanada yorqinroq ko'rsatib beradi. Shu nuqtai nazardan, dualizm nafaqat badiiy syujetni boyitadi, balki qahramonlarning ko'p qirrali ruhiyatini ham ochib beradi, bunda o'quvchini matnga bog'lab, asarning badiiy talqin etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu maqola Agata Kristi asarlarida dualizm konseptining nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, uning adabiy matn tahlilidagi metodologik ahamiyatini va badiiy matnni sinchiklab o'rganish vositasi sifatida qo'llanishini ko'rsatishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, maqola zamonaviy adabiyotshunoslik doirasida dualizmning universal va ko'p qirrali konsepsiya sifatida o'rganilishining ilmiy asoslari tahlilini o'z ichiga oladi.

Dualizm tushunchasi adabiyotshunoslikda turli adabiy maktablar tomonidan o'rganilib, turli yondashuvlar asosida talqin etiladi. Strukturalizm doirasida, fransuz etnografi Claude Lévi-Strauss binar qarama-qarshiliklar madaniy va badiiy matnlarni tashkil etuvchi asosiy tamoyil ekanini ta'kidlaydi[3]. Agata Kristi asarlarida «yaxshilik-yomonlik», «haqiqat-yolg'on», «tashqi ko'rinish-haqiqat» kabi qarama-qarshi elementlar syujetni rivojlantirish va o'quvchining e'tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi. Masalan, «Murder on the Orient Express»[4] romanida har bir qahramonning zohiri va botini o'rtasidagi ziddiyat syujetni yanada murakkablashtiradi. Bu esa o'quvchi uchun kutilmagan, sirli vaziyatlar yaratib, voqea xodislarni idrok qilish jarayonini qiyinlashtiradi.

Psixoanalitik yondashuv dualizmni inson ruhiyatidagi ichki tarqoqliklar, tafovut va nizolar tarzida tushuniladi. Fransuz faylasufi Freudning fikricha, inson ruhiyati ong va ongsizlik o'rtasidagi ziddiyatni o'zida mujassam etadi, bunday holatlar badiiy matnda obrazlar yordamida aks ettiriladi[5].Kristi qahramonlarining, ayniqsa jinoyatchi obrazlarlarining ziddiyatlari orqali yaqqol ko'rinadi. Ular bir vaqtning o'zida aqlli va hissiyotli, mas'uliyatli va jinoyatchi kabi turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, «The Murder of Roger Ackroyd»[6] asarida bosh qahramon va jinoyatchi obrazining qarama-qarshi xatti-harakatlari matnga ruhiy bo'linishlar yaratadi va qahramonlarning murakkab ruhiy dunyosini ochib beradi.

[1] Todorov,T. Introduction to Poetics, trans. Richard Howard. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1981. – P. 41–45.
[2] Christie, A. The Murder of Roger Ackroyd. – New York: William Morrow 2011. – P. 112.
[3] Claude L.S, Structural Anthropology, 2nd ed. – New York: Basic Books, 1969. – P. 410.
[4] Christie, A. Murder on the Orient Express. – New York: Harper Collins, 1934. – P. 256.
[5] Freud, S. The Ego and the Id. – New York: W. W. Norton & Company, 1990. – P. 23.
[6] Christie, A. The Murder of Roger Ackroyd. – New York: W. W. Norton & Company, 2011. – P. 112.

Narratologik yondashuv dualizmni syujet va hikoya qilish texnikasi orqali ko‘rsatib beradi. Amerikalik adabiyotshunos Gérard Genette fikricha, hikoya va syujet o‘rtasidagi farq va qarama-qarshi elementlar badiiy matnga murakkablik va ko‘p ma’nolilik taqdim etadi[1].Christie asarlarida ikki yo‘nalishga asoslangan qarashlar mavjud, masalan, voqelik – jinoyat va uning ochilishi – kabi bosqichlar mavjud bo‘lib, bunday dualizmga asoslangan qarash o‘quvchining matnga e’tiborini jalb etadi va voqelikni real nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, dualizm qahramonlarning qarorlarini va ularning ichki ziddiyatlarini yanada yorqinroq ko‘rsatib beradi, bu esa o‘quvchining empatiya va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib boradi.

Ushbu tadqiqotda foydalanilgan tahlil metodlari A. Kristining tanlangan asarlari – «The Murder of Roger Ackroyd», «Murder on the Orient Express», va And Then There Were None» strukturalizm, psixoanaliz va narratologik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Jumladan, struktural tahlil syujet va obrazlar o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarni aniqlashga qaratilgan. Bu usul dualizmning matn tuzilishidagi vazifasini ochib beradi, qahramonlar va voqelik o‘rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qiladi va syujetning murakkabligini tushuntiradi. Masalan, «And Then There Were None» asarida har bir qahramonning xulq-atvori va ichki olami o‘rtasidagi qarama-qarshilik syujetning markaziy qismi sifatida ko‘rinadi.

Psixoanalitik tahlil qahramonlarning ichki ruhiy ziddiyatini aniqlashga yordam beradi. Bu metod yordamida dualizm qahramonlarning ong va ongsizlik, axloqiy qarorlar va ichki istaklar o‘rtasidagi kurashini tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, «The Murder of Roger Ackroyd» asarida bosh qahramon va jinoyatchi obrazining qarama-qarshi xatti-harakatlari psixologik murakkablikni yuzaga keltiradi.

Narratologik tahlil syujet va hikoya qilish texnikasini o‘rganishga qaratilgan. A.Kristi asarlarida ikki qismlik voqelik – jinoyat va uning ochilishi – mavjud bo‘lib, bu dualizm o‘quvchining matnga diqqatini jalb etadi va syujetning murakkabligini oshiradi. Shu bilan birga, dualizm qahramonlarning ichki psixologiyasini yanada boyitadi va badiiy matnga interpretativ chuqurlik beradi.

A. Kristi asarlarida dualizm syujetni rivojlantirishning markaziy kuchi sifatida turli shakllarida struktural, psixoanalitik va narratologik tarzda namoyon bo‘ladi. Strukturalizm nuqtai nazaridan, har bir qahramon va syujet elementi qarama-qarshi vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, matnga murakkablik va turlicha talqin qo‘shadi. Masalan, «And Then There Were None»[2] asarida o‘quvchi qahramonlarning xulq-atvori va ichki orzu istaklarini solishtiradi va ularning qarama-qarshi tomonlarini tahlil qiladi. Har bir qahramonning xulq-axloqi va ichki olami o‘rtasidagi ziddiyat syujetga yanada dramatik mazmun qo‘shadi, o‘quvchini matnga qiziqtiradi va sirli jumboqni ochishga undaydi. Shu bilan birga, syujet elementlarining qarama-qarshi o‘zaro ta’siri voqelikni ko‘p tomonlama tahlil qilishga va matnga ko‘p interpretativ imkoniyatlar beradi.

Psixoanalitik yondashuv qahramonlarning ichki ruhiyatidagi ziddiyatlarini ochib beradi. Freud nazariyasiga binoan, inson ruhiyati ong va ongsizlik o‘rtasidagi ziddiyatni o‘zida mujassam qiladi[3]. Kristi qahramonlarida, ayniqsa jinoyatchi obrazlarda, bu ziddiyat aniq seziladi, ular bir vaqtning o‘zida aqlli va hissiy, mas’uliyatli va jinoyatga moyil bo‘lishi mumkin. The Murder of Roger Ackroyd asarida bosh qahramon va jinoyatchi obrazining qarama-qarshi xatti-harakatlari o‘quvchi uchun tafakkur va qahramonlarning murakkab psixologiyasini yanada yorqin ko‘rsatadi. Shu bilan birga, dualizm o‘quvchining empatiya va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ularni obrazlarning ichki dunyosini tahlil qilishga undaydi.

Narratologik tahlil mezonida Kristi syujetlarining murakkab tuzilishini ochib beradi. Yozuvchi asarlarida ikki ma’nolilik: voqelik, jinoyat va uning ochilishi kabilar mavjud bo‘lib, bu qarama-qarshi elementlar o‘quvchining matnga e’tiborini jalb qiladi va syujetning murakkabligini oshiradi. Masalan, «Murder on the Orient Express» asarida jamoaviy aybdorlik va adolat masalasi dualistik ziddiyatni yaratadi, bu esa o‘quvchida etik va estetik savollar ustida izlanishga undaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Kristi asarlarida dualizm syujet, qahramon psixologiyasi va semantik maydonda bir vaqtning o‘zida manoga ega bo‘ladi. Bu konsepsiya nafaqat mavzuiy element, balki metodologik vosita sifatida ham badiiy matnni batafsil o‘rganishga yordam beradi va zamonaviy adabiyotshunoslikda dolzarblik kasb ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Agata Kristi poetikasi dualizm tushunchasini strukturaviy, psixoanalitik va semantik maydonlarda muvaffaqiyatli aks etadi. Dualizm syujetni rivojlantirish, qahramonlarning ichki ruhiy ziddiyatlarini ochib berish va o‘quvchining matnga e’tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga, u badiiy matnga interpretativ mazmun beradi va o‘quvchining analitik fikrlashini rag‘batlantiradi. Muallif asarlarida dualizm syujet va qahramon psixologiyasining murakkabligini yaratishda bir vaqtning

[1] Genette, G.Narrative Discourse: An Essay in Method. – New York:Cornell University Press, 1983. – P. 229
[2] Christie, A. And Then There Were None. – New York: Harper Collins Press. – P. 198.
[3] Freud, Sigmund. The Ego and the Id. – New York: W. W. Norton & Company, 1990. – P. 23.

o‘zida ishlaydi, bu esa detektiv janrni o‘quvchi uchun qiziqarli va dramatik jihatdan boyitadi.

Dualizm konsepsiyasini kognitiv adabiyotshunoslik va madaniyatlararo tadqiqotlar nuqtai nazaridan o‘rganish Kristi va boshqa detektiv yozuvchilar poetikasini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, dualizm tushunchasi zamonaviy adabiyotshunoslikda samarali tahlil vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin, bu esa badiiy matnni o‘rganish va talqin qilishning yangi metodologik yondashuvlariga yo‘l ochadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, dualizm nafaqat badiiy konsept, balki metodologik vosita sifatida ham qimmatli bo‘lib, detektiv janr va adabiyotshunoslik doirasida qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, dualizmni boshqa janr va yozuvchilarning asarlarida tadqiq etish, konsepsiyaning universal xususiyatini yanada mustahkamlash va badiiy tahlil metodlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dualizm konsepsiyasi yordamida syujetning murakkabligi, qahramonlarning ruhiy olami va adabiy matnning interpretativ imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa A.Kristi poetikasini zamonaviy badiiy tahlil nuqtai nazaridan boyitadi va badiiy adabiyotning metodologik o‘rganilishi uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Rezyume. Ushbu maqolada Agata Kristi asarlarida dualizm tushunchasining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Strukturalizm, psixoanaliz va narratologiya kabi adabiy yondashuvlar asosida dualizm syujet, qahramon ruhiyati va semantik maydonda qanday namoyon bo‘lishi o‘rganilgan. Dualizm nafaqat mavzuga doir tushuncha, balki metodologik vosita sifatida badiiy matnni tadrijiy o‘rganishga yordam beradi. Maqola dualizmning universal va ko‘p qirrali konsepsiya ekanligi, shuningdek, detektiv janr va zamonaviy adabiyotshunoslikda samarali tahlil vositasi sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Resume. This article examines the theoretical and methodological foundations of the concept of dualism in the works of Agatha Christie. Drawing on literary approaches such as structuralism, psychoanalysis, and narratology, the study explores how dualism manifests itself in plot construction, character psychology, and the semantic dimension of the literary text. The findings suggest that dualism functions not only as a thematic concept but also as a methodological tool that facilitates a gradual and in-depth analysis of literary works. The article demonstrates that dualism is a universal and multifaceted concept, effectively applied both in detective fiction and in contemporary literary studies.

Резюме. В данной статье анализируются теоретико-методологические основы концепции дуализма в произведениях Agatha Christie. На основе таких литературоведческих подходов, как структурализм, психоанализ и нарратология, исследуется, каким образом дуализм проявляется в сюжете, психологии персонажей и семантическом пространстве художественного текста. Установлено, что дуализм выступает не только как тематическая категория, но и как методологический инструмент, способствующий поэтапному и углублённому анализу литературного произведения. В статье показано, что дуализм является универсальной и многогранной концепцией, эффективно применяемой как в детективном жанре, так и в современной литературоведческой практике.